

## O'ZBEKISTONDA OILA INSTITUTLARINING MUSTAHKAMLASHNING IJTIMOYIY- IQTISODIY ASOSLARI

**X.U. Samatov**

Ilmiy rahbar.

**Sattorov Sardor**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,  
Samarqand filiali Kompyuter injineri fakulteti.

KI 21-04 guruh talabasi.

Telefon raqami: +998990767475.

**Elektron pochta manzili:** [sattorovsardor@gmail.com](mailto:sattorovsardor@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11315789>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada respublikamizda oila institutlarining ahamiyati va uni mustahkamlashning zarur chora-tadbirlari yoritilgan. Jumladan Ularning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy jihatdan qo'llash va oila institutlarining jamiyatdagi o'rnini oshirish masalalari ko'rsatib o'tilgan. Bunday chora-tadbirlardan yana biri oila kodeksining mustahkamlanganligi.

**Kalit so'zlar:** Oila kodeksi, oila institutlarini mustahkamlash konsepsiyasi, Oila pedagogikasi, nikoh, Ayol va jamiyat instituti.

### SOCIO-ECONOMIC FOUNDATIONS OF STRENGTHENING OF FAMILY INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN

**Abstract.** This article describes the importance of family institutions in our republic and the necessary measures to strengthen them. In particular, the issues of their socio-economic, spiritual application and increasing the position of family institutions in society are shown. Another such measure is the strengthening of the family code.

**Key words:** Family Code, the concept of strengthening family institutions, Family pedagogy, marriage, Institute of Woman and Society.

### СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УКРЕПЛЕНИЯ ИНСТИТУТОВ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** В данной статье описывается значение институтов семьи в нашей республике и необходимые меры по их укреплению. В частности, показаны вопросы их социально-экономического, духовного применения и повышения позиции институтов семьи в обществе. Еще одна такая мера – усиление семейного кодекса.

**Ключевые слова:** Семейный кодекс, концепция укрепления институтов семьи, семейная педагогика, брак, институт женщины и общества.

Shaxs ma'naviyatini rivojlantirishning omillari va vositalari ko'p. Shulardan biri farzandining ota-onaga va ota-onaning farzandiga farzandiga bo'lgan munosabat masalasidir.

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan biri – ota-onani farzandlar tomonidan yuksak darajada e'zozlash izzat-ikromini, hurmatini joyiga qo'yishdan iboratdir.

Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko'ra mehribon, aziz va mo'tabar zot yo'q. Ota-ona farzandlarning suyanchig'i, bitmas – tuganmas boyligidir.

Ota-ona o'z farzandidan hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan buyukliklari ham ana shunda. O'zbek xalqi odob-axloqi bo'yicha, keksalarning, ota-onaning oldidan salom bermasdan o'tishi gunoh hisoblanadi.[1]

Tanishingizni biror noqulay holatda ko'rib qolsangiz o'zingizni ko'rmaslikka olganingiz va ko'rganingizni boshqalarga aytmaganingiz ma'qul.

Jismoniy kamchiligi bo'lgan - duduqlanib gapiradigan, qulog'i yaxshi eshitmaydigan, oqsoqlanib yuradigan va shu singari kishilarni xatto orqasidan bo'lsa ham mazax qilish va mayna qilish o'ta orsizlik hisoblanadi. Bunday kishilarga aksincha sertakalluflik bilan, raxmdillik bilan muomilada bo'lish kerak.

Rahmdillikni nazokat tuyg'usi boshqarishi lozim.

Oila – nikohga yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orning birligi, o'zoro yordami va ma'naviy ma'suliyati bilan bir-biriga bog'langan.

Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari – inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa bo'lsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi.[2]

Bugungi kunda Respublikamizda oila institutlarining ahamiyati juda katta. Oilalarning buzilishini oldini olish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llash davlatimiz ilgari surayotgan g'oyalardan biri hisoblandi. Jumladan oilalarda moliyaviy muammolarning kamayishiga qaratilgan qaror va konsepsiyalar yaqqol misol bo'la oladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidentining qarori(2018-yil 27-iyun)

O'zbekistonda oilani rivojlantirishga global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida qaraladi.

Shu bilan birga, ushbu sohada davlat siyosatini muvaffaqiyatli olib borishni to'xtatib turuvchi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar oila institutini mustahkamlash sohasidagi islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga va belgilangan maqsadlarga erishishga to'sqinlik qilmoqda.

Birinchidan, tegishli idora va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda monitoring qilishning ta'sirchan tizimi mavjud emas, oilani rivojlantirish masalalari bo'yicha davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor hamkorligi past darajada;

Ikkinchidan, oila institutini mustahkamlash sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ixtisosligi tor, hozirgi hayot voqeligidan uzilib qolgan, ilmiy tadqiqotlar natijalari amaliyotga sust joriy etilmoqda;

Uchinchidan, oilaning demografik rivojlanishida o'zgarishlar yuz bermoqda, oila ajralishlari soni o'smoqda, mazkur sohada salbiy tendensiyalar va muammolar sabablarini asoslovchi tadqiqotlar yetishmayapti;

To'rtinchidan, oilada, ta'lim muassasalarida madaniy-tarixiy meros salohiyatidan sust foydalanilmoqda, milliy mentalitetimizga yot bo'lgan g'oya va qarashlar ta'sirining oldini olish borasidagi ishlar samarasiz;

Beshinchidan, oila institutini mustahkamlashning qonunchilik asoslari mukammal emas, huquqni qo'llash amaliyotini va ilg'or xorij amaliyotini o'rganish asosida oilani himoya qilish va qo'llab-quvvatlash sohasida mustahkam huquqiy asos mavjud emas;

Oltinchidan, mutaxassislar yetishmaydi va kadrlar malakasi past darajada, ta'lim tizimida mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni prognozlashtirish mexanizmi yo'lga qo'yilmagan, oila institutini mustahkamlash va rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturlari mukammal emas.

Oila institutini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, bu jarayonda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning yaqin hamkorligini hamda faol rolini ta'minlash maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son farmoniga muvofiq: oila institutini mustahkamlashning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish;

zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish;

demografik rivojlanishni rag'batlantirish va oila farovonligi darajasini oshirish; oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash; oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish.

Keyingi vaqtlarda mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ayollar mavqeini o'z o'rniga qo'yishga yo'naltirilgan nodavlat tashkilotlari ham yuzaga kela boshladi. SHu jihatdan 1997 yili Toshkentda «Ayol va jamiyat» instituti tashkil topishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni bayon etmoq lozim.

Adliya boshqarmasi ro'yhatidan o'tkazilgan bu institutning tadqiqotchilik va siyosiy ta'lim bo'limlari mavjud.

Mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish davlatimiz siyosatining ustivor o'nalishlaridan biri ekan, uquyidagi asosiy yunalishlarni o'z ichiga qamrab oladi:

—oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, oila manfaatlarini huquqiy himoyalashini ta'minlash, onalik va bolalik huquqlarini muhofaza qilish;

—oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oila a'zolarining sog'ligini muhofaza qilish va ta'lim darajasini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash;

—oilaning iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaning daromadlarini, oila a'zolarining ish bilan ta'minlash darajasini oshirish, ro'zg'or yumushi va turmush sharoitlarini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

—oilaning ma'naviy-ahloqiy asoslarini va madaniy manfaatlarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish; oilaning sog'lom, aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning vazifalarini takomillashtirish;

— oila muammolarini ilmiy va ijtimoiy tadqiq, etish, oila, xotin-qizlar va bolalarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini ko'rsatuvchi statistika hisobotini to'plash va takomillashtirish. [3]

Oila - bu sotsial institutdir. Oila jamiyat o'lchovlari nuqtai nazaridan va nikoh munosabatlariga ta'siri qilishi va tashkiloti.

Oila kichik sotsial guruhlardan iborat bo'lib, uning a'zolari nikoh yoki qarindoshlik rishtalarining ma'naviy mas'uliyati bilan o'zaro bog'liq. Bu esa inson avlodini yaratilishi jamiyatning ham jismoniy, ham ma'naviy tiklanishi bilan bolanadi.

Nikoh - erkak va ayol orasidagi munosabatlarning tarixan o'zgaruvchan formasi bo'lib, jamiyatning vositasida jinsiy hayotini tartibga soladi va uyushtiriladi, ota-onalik burchi va huqularini yo'lga qo'yadi. Oila va nikoh tushunchalari nima anglatadi?

Bu masalada olimlar turli fikrlarni bildiradilar. Monogomiya (yakka nikohlik) ni birlamchiligi va doimiyligini tan oluvchi olimlar, oila va nikoh orasidagi farqni faqat rasmiy darajada borligini ta'kidlashadi. Masalan, nemis faylasufi G.Gegel «Nikoh faqat oila tushunchasining bevosita ta'siridir», - deb ta'kidlanagan. Ushbu qarashning asossizligi shundan iboratki, oila va nikoh tarixan bir paytda paydo bo'lmaganligidadir.

Rossiyalik etnograf olim L.Ya. Shterbergning yozishicha, erkak va ayol orasidagi jinsiy munosabatni (doimiy bo'lsa) nikoh, deb atash uchun u, jamiyat tomonidan rasmiy tasdiqlangan va tomonlar to'la teng huquqli bo'lishi kerak. Tarixda erkak va ayol orasidagi munosabatlarning jamiyat tomonidan tan olinishi, bu «jinsiy muloqotdan ota-ona va farzandlar, shuningdek, bobo va nevaralarning ongli chiqib ketishi» bo'ladi. Bu sanksiya odamlarning jinsiy hayoti faqat ularning tabiati aniqlangan nikohgacha holati bilan va nikoxning ijtimoiy boshqari hamda jinslararo boshqaruv orasidagi tarixiy chegarasi bo'ldi. Nikohning paydo bo'lishi xali oila paydo bo'lganligini anglatmagan, chunki bu bosqichdagi nikoh, faqat erkak va ayollarning goh-goh qo'shilib turishini anglatgan xolos.[4]

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda Respublikamizda oila institutlarining rag'batlantirilishi juda kata yutuqlarga erishishda asosiy tamoyil hisoblanadi. Chunki farzandlar birinchi tarbiyani oilasidan oladi. Bolalarning yaxshi tarbiya topishi oila institutlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bir bolaga yeti qo'shni ota-ona deganidek, Oila, mahalla institutlarining o'rni beqiyos.

### **REFERENCES**

1. Ma'naviyat asoslari – o'quv qo'llanma . T.A.Qodiriy no midagi xalq merosi nashriyoti."O'AJBNT" markazi 2002. Muallif:S.Husanov, J.Ramatov 192-bet
2. "Tarbiya " kitobi (ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya ) "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi " Davlat ilmiy nashriyoti" Toshkent-2010 321-bet
3. O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining Qarori(2018-yil 27-iyun)
4. Sotsiologiya fanidan maruzalar matndan.2023 yil TATU Samarqand filiali.